

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ARIFMETIK AMALLARINI O'RGATISHNING SAMARALI METODLARI

Sunnatullo Do'stov

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi,

To'rayeva Oqila Akmal qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4- bosqich talabasi

Tel: +998881946005

E-mail: turayevaoqila75@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20677806>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida arifmetik amallarni o'rgatishning samarali metodlari, ular orqali o'quvchilarda matematika faniga bo'lgan qiziqishini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, arifmetik amallarni o'rgatishda interfaol metodlar, didaktik o'yinlar, muammoli ta'lim va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyatlari ham tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi, ularning faolligini oshiradi, fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi hamda matematik bilimlarni mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi.


Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, matematika, arifmetik amallar, interfaol metodlar, didaktik o'yinlar, muammoli ta'lim, pedagogik texnologiyalar.

Kirish. Hozirgi kunda yurtimizda uzluksiz ta'limga bo'lgan e'tibor yanada kuchaymoqda. Shunday ekan, boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining muhim bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, o'qish motivatsiyasi hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Bu jarayonda matematika fanining o'rni alohida ahamiyatga ega. Matematika o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf matematika kursining asosiy qismini arifmetik amallar tashkil etadi. Qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallarini o'rganish orqali o'quvchilar sonlar o'rtasidagi munosabatlarni tushunadilar hamda o'rganilgan bilimlarni kundalik hayotda qo'llashni o'rganadilar. Shu sababli arifmetik amallarni samarali o'rgatish boshlang'ich ta'limning eng muhim vazifalaridan biridir.

Asosiy qism. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, ularning o'yin faoliyatiga moyilligi, obrazli tafakkurning ustunligi va ko'rgazmali materiallarga bo'lgan qiziqishi bilan ajralib turadi. Shu sababli arifmetik amallarni o'rgatishda faqat an'anaviy usullar bilan cheklanib qolmasdan, zamonaviy pedagogik yondashuvlardan va texnologiyalardan hamda interfaol metodlardan foydalanish muhimdir.

Arifmetik amallarni o'rgatishda samarali metodlardan biri didaktik o'yinlar hisoblanadi. Didaktik o'yinlar orqali o'quvchilar matematik amallarni qiziqarli va oson o'zlashtiradilar. Masalan, sonli kartochkalar, rangli predmetlar, kubiklar yoki boshqa ko'rgazmali vositalar yordamida tashkil etilgan o'yinlar o'quvchilarning diqqatini jalb etadi hamda ularning dars jarayonidagi faolligini oshiradi. Bunday o'yinlar orqali o'quvchilar qo'shish va ayirish amallarini tezroq o'zlashtiradi, ko'paytirish va bo'lish amallarini esa mustahkam eslab qoladilar. Shuningdek,

arifmetik amallarni o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. “Aqliy hujum”, “klaster”, “kichik guruhlarda ishlash”, “savol-javob”, “muammoli vaziyat yaratish” kabi metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Masalan, „klaster metodi” bunda o'quvchilar o'rganilgan bilimlarini qay darajada eslab qolganliklarini yoki o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun foydalanish mumkin.



Ushbu metodlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etadi, muammolarni birgalikda hal qiladi hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Arifmetik amallarni o'rgatishda masala va topshiriqlar ustida ishlash ham muhim metodlardan biridir. Matnli masalalar o'quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi, ularni real hayotdagi vaziyatlarni matematik jihatdan tahlil qilishga o'rgatadi. Masalalarni yechish jarayonida o'quvchilar arifmetik amallarni qaysi vaziyatda va qanday qo'llash kerakligini tushunib yetadilar. Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Interaktiv doskalar, elektron taqdimotlar, ta'limiy dasturlar va multimediali vositalar yordamida arifmetik amallarni yanada qiziqarli va samarali o'rgatish mumkin. Bunday texnologiyalar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning bilimlarni tezroq o'zlashtirishiga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'limda arifmetik amallarni samarali o'rgatish o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Didaktik o'yinlar, interfaol metodlar, muammoli ta'lim va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilar bilimlarni ongli va mustahkam o'zlashtiradilar. Shuningdek, bu metodlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirib, ularni mustaqil ravishda masalalarni va hayotiy muammolarni hal qilishga o'rgatadi. Shu sababli boshlang'ich sinf matematika darslarida arifmetik amallarni o'rgatishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan keng foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri qaratiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
2. Bikboyeva N.U., Yangiboyeva E.Y. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019.
4. Rahimov A.A. Interfaol ta'lim metodlari va ularning qo'llanilishi. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Matematika. 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
6. www.pedagog.uz